

9-MAY – XOTIRA VA QADRLASH KUNI

xb

JASORAT, BURCH, MATONAT

O'zbekistonda
joriy yilda umumxalq bayrami –
Xotira va qadrlash kuni
«Jasorat, burch, matonat»
shiori ostida keng nishonlanadi.



**Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!**

**Tong
yulduzi**

N:16 (67025)
2015-yil
20-aprel

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN – 2010-6092



**BU MUQADDAS
VATANDA
AZIZDIR INSONI**

BIZ «O'ZBEKISTON»DANMIZ!

**BU GAPNI
NASHRIYOT-
MATBAA IJODIY
UYI XODIMLARI
FAXR BILAN TILGA
OLISHADI**

«O'zbekiston» nashriyot-
matbaa ijodiy uyida madaniy-
ma'rifiy tadbirlarni keng
ko'lamda o'tkazish yaxshi
an'ana aylangan.
Yaqinda korxonada
«Keksalarni e'zozlash yili»
hamda yaqinlashib kelayotgan
9-may – Xotira va qadrlash
kuni munosabati bilan katta
bayram tadbiri bo'lib o'tdi.
Unga mazkur dargohda uzoq
yillar fidokorona mehnat qilib,
ayni paytda nafaqada bo'lgan
ishchi-xizmatchilar taklif
etilib, bir piyola choy ustida
qiziqarli gurunglar o'tkazildi.

Tadbir davomida mehnat
faxriylari korxonaning bugungi
faoliyati bilan yaqindan
tanishib, ishchilarga
yaratilgan shart-sharoitlarni
alohida e'tirof etdilar. Bayram
so'ngida esa mehmonlarga
ma'muriyat tomonidan
rag'batlantiruvchi sovg'alar
taqdim etildi. Asosiysi esa,
davra ishtirokchilari bu
muqaddas Vatanda inson
azizligi, shuningdek,
sidqidildan qilingan mehnat
hamisha e'tirof etilishiga yana
bir bor amin bo'ldilar.
Bizningcha, eng muhimi ham
shu bo'lsa kerak.

Ushbu sonda:

**«MUSTAQILLIK
MADHI BOLALAR
IJODIDA»**

**AZIZBEK
PARVARISHLAGAN
GULLAR**

2-bet

3-bet

**ARAZCHI
POYABZALLAR**

6-bet

Biz nafaqat o'tganlarni xotirlashimiz, balki bugun hayot bo'lganlarni qadrlashimiz, hurmatini joyiga qo'yishimiz zarur.

Islom KARIMOV

Imomnazar ota Qurbonov Marg'ilon shahridagi «Yovqochar» mahallasida istiqomat qiladi. Otaxon bu bahorda 100 yoshni qarshiladi. Hozirda 8 nafar farzand, 17 nabira, 29 chevara va 4 evaralari ardog'ida hayot kechirmoqda.

FAXRIYLAR - FAXRIMIZ

Imomnazar ota 1941-yilning kuz oylarida frontga yo'l oladi. Og'ir janglarning birida yaralandi. Gospitalda davolanib yana harbiy safga qaytdi.

1945-yilda harbiy qo'mondonlik buyrug'i bilan ona Vataniga qaytib keldi. Urushdan so'ng shahardagi atlas to'qish korxonalaridan birida nafaqaga chiqquncha to'quvchi sifatida samarali mehnat qildi.

Shod-u xurram kunlar sururidan bahra olib, el-yurti duo qilib, e'zoz-e'tiborda yashab kelayotgan Imomnazar ota Qurbonov farzand-u nabira, chevaralariga «O'tayotgan har bir kunning qadriga yetinglar, tinchlik-osoyishtalikni asrab-avaylanglar», deya doimo uqtirib keladi.

AZIZBEK PARVARJSHLAGAN GULLAR atrofda qilarga zavq bag'ishlamoqda

Azizbek Aminjonov – Samarqand shahridagi 16-umumta'lim maktabining 2-sinf o'quvchisi.

U bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga harakat qiladi. Ayniqsa, bobosining yonida ko'proq bo'lib, rivoyatlar, hikmatli so'zlarni tinglashni yaxshi ko'radi. Shuningdek, komil inson bo'lish, buning uchun nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida uzoq suhbatlashishadi. Bobosi Yusuf ota Pirmonov 93 yoshda bo'lsa-da, g'ayratli inson. Ayni kunlarda bobo va nabira o'zlari parvarish qilgan turli gul ko'chatlarini yaqin hududdagi mahalla, ta'lim, tibbiyot maskanlariga tarqatishmoqda.

**SH. SHUKUROVA,
X. SULAYMONOVA**



Muhammadjon MAHMUDOV

...6-«A» sinfida o'qiydigan Sunnat ismli o'quvchi hamma fanlardan birdek qiynalardi. Ustozi o'quvchisining qiziqishlarini o'rgandi va shu yo'nalishda vazifa berdi. Keyin nima bo'ldi, deysizmi? Sunnat kutilmaganda o'qituvchisiga o'zi yurar kema, va mashina o'yinchoqlarini yasab keldi. Ustozi esa ushbu jismlarga mos ingliz tilida she'r, maqol va 20 so'zdan iborat lug'at berdi. Shogird buni ham uddaladi. Endi o'quvchi uy ishini mustaqil bajaradigan bo'ldi...

BILIM DENGIZI JAVOHIRI

Huriniso Ostonova... Tashabbuskor, tirishqoq pedagog hozirda Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanidagi 3-umumta'lim maktabida ingliz tilidan dars beradi. Ustoz o'quvchilar bilan ishlashda hamisha noan'anaviy uslubdan foydalanishga harakat qiladi. Hamma pedagoglar singari darsda har bir o'quvchi bilan alohida shug'ullanadigan Huriniso opa darsni qiyin o'zlashtiradigan o'quvchilar bilan ishlashda doimo o'z uslubini qo'llaydi. Uning zukkoligi



bois, Sunnat endilikda sinfning faol o'quvchisiga aylandi.

Muallima darsdan bo'sh vaqtlarida bolalarga o'zbek va ingliz raqslarini o'rgatishda mohir. Hattoki maktabda xor jamoasi bor. U o'quvchilar qurshovini «Baxtlar qurshovi», deb ataydi. Baxtlar qurshovida yonib yashayotgan pedagog shogirdlar davrasida o'tayotgan har kunidan baxtiyor.

Shahnoza MUHAMMEDOVA

Poytaxtimizning Setgeli tumanidagi 305-MJMda Toshkent pedagogika kollejining musiqa yo'nalishi 2-bosqich 13-guruh amaliyotchi o'quvchilazining ustozlari Nigora Nazatxonova boshchiligida tayyorlangan ma'naviy-ma'zifiy tadbir bo'lib o'tdi.

KOLLEJ O'QUVCHILARI BOG'CHADA ona Vatan haqida qo'shiq kuylashdi

Kecha muassasa tarbiyachilari Sanobar Mahamadjonova va Mahmuda Hojimurodovanning «Vatan», «Ona» mavzusidagi she'rlari bilan boshlandi. Kamay-surnay sadolari ostida bolajonlar milliy o'yinlarni boshlab yuborishdi. Bog'cha tarbiyalanuvchilari mehmon o'quvchilar bilan birgalikda «Arqon tortish», «Kurash» kabi milliy o'yinlarimizni miriqib o'ynashdi. «Aytishuvlar»da jajji kichkintoylar ham bo'sh kelishmadi. Tadbir davomida bolajonlar maskanda o'rgangan raqslarini namoyish etishdi. O'quvchilar ijrosidagi «Andijon polkasi» kechaga yanada fayz kiritdi.



– O'yin-kulgiga boy o'tgan tadbir bolajonlarga bahoriy kayfiyat ulashib, ularda milliy o'yinlarimizga mehr uyg'otishi, shubhasiz, – deydi muassasa rahbari Shohida Muzaffarova. – Kollej o'quvchilari bilan hamkorlikda o'tkaziladigan navbatdagi tadbir dasturini rejalashtirdik.

**Marhabo ABDUVALIYEVA,
Nodira NAZAROVA**



ONA TABIATIMIZ
MO'JIZALARI

KORIZLAR SIRI

Jonajon, betakror, hech bir mamlakat bilan qiyoslab bo'lmaydigan ona Vatanimiz tabiatining qanchalik go'zal, fusunkor va sir-sinoatlarga boy ekanligidan faxr etsak arziydi.

Purviqor tog'larimiz, xushmanzara, rang-barang gullarga burkangan vodiylarimiz, ichsa ta'mi og'izda qoladigan shirin-shakar suvlari bilan nom qozongan daryo-yu chashmalarimiz, tarovatli keng dala-dashtlarimiz yurtimizning boyliklaridir.



Aziz o'quvchilar! Bugun siz bilan ona tabiatning yana bir mo'jizasi - korizlar haqida taassurotlarimizni baham ko'rmoqchimiz.

Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida Xo'jailmkoni qishlog'i bor. Hisor tog' tizmalarining bag'rida joylashgan bu go'zal maskan o'zining qadim tarixi bilan mashhur. Qishloq 500 yil ilgari ham qadimiy Keshning eng obod, ilm-ma'rifat markazlaridan biri bo'lib, bunda barpo etilgan bir necha maktab va madrasalarda uzoq-yaqindan kelgan talabalar saboq olishgan.

Xo'jailmkoni qishlog'i tabiatning mo'jizalaridan biri hisoblangan sirli korizlari bilan ham mashhurdir.

Koriz - bu bir necha quduqlarni birlashtiruvchi yer osti kanali bo'lib, u suv chiqishi qiyin bo'lgan qiyalik va aholini suv bilan ta'minlaydigan manba hisoblanadi. Xo'jailmkoni dara, pasttekislarda joylashgani bois, qishloq aholisini suv bilan ta'minlaydigan yakka-yu yagona manba korizlardir.

Qishloqning kun chiqadigan tomonida o'n uchta koriz bo'lib, ular taxminan VIII-IV asrlarda qazilib, foydalanila boshlangan. Qishloqni suv bilan ta'minlash maqsadida notekis chuqurlikdan oqib o'tuvchi buloq suvi qishloqning shu qismidan o'tkazilgan. Korizlar noyob qurilmalar hisoblanib, yer ostidan lahm qazilgan, quduqlar bir-biriga birlashtirilib, suv bir yo'nalishda oqizilgan.

Korizlar orasidagi masofa 10-15 metrni tashkil qiladi.

Korizlarni o'ylab topib, aholini obihayot bilan ta'minlashdek savob ishga qo'l urgan «xtirochi» haqidagi biror-bir ma'lumot bizgacha yetib kelmagan.

Korizlarga suv Qora momo tog' pasttekislarining buloqlaridan quyilib, korizlar orqali o'tgan suv esa katta ariq bilan to'g'ri qishloqqa kirib keladi. Bu suvdan qonib-qonib ichgan uzum, anor bog'larining mevalari o'zining shirin mazasi bilan Xo'jailmkonini yonatrofqa mashhur qilgan.

Xullas, Xo'jailmkoni korizlari tabiatning bir mo'jizasi bo'lib, ular o'zida ana shunday ajoyib xususiyatlarni mujassam etgan.

Kamoliddin HAMDAMOV,
O'zMU jurnalistika fakultetining
4-bosqich talabasi

Vatan! Uni har kim o'zicha talqin qiladi, madhini o'z so'zi, ovozi bilan kuylaydi. Bu muqaddas so'zning ma'no-mazmunini chin dildan his etish baxti faqatgina qalbi beg'ubor, buyuk maqsadlar bilan yashaydigan insonlargaгина nasib etadi.

«MUSTAQILLIK MADHI BOLALAR IJODIDA»
RESPUBLIKA IJODIY ISHLAR TANLOVIGA

Vatanni dunyodagi eng muqaddas xilqatlariga qiyoslaymiz: ona yurt, ota makon, deb ataymiz, suyanchim, tayanchim, faxrim, iftixorim, deymiz. Mamlakatimiz rahbarining «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi Qarorida belgilangan «Yagonasan, muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, go'zal O'zbekistonim!» degan ezgu g'oya chin ma'noda barchamizning dil izhorimizni o'zida umumlashtirganday bo'ldi.

Bu hayotbaxsh g'oya faxr tuyg'ulari bilan birga Vatan uchun ezgu ishlar qilish, uning kelajagi uchun qayg'urish mas'uliyatini ham dillarga jo etadi. Bu mas'uliyat hissini o'z oldiga aniq bir maqsad qo'yib, unga erishish uchun puxta bilim olishga intilayotgan o'g'il-qizlarimiz hozirdanoq teran his qilishyapti. Mustaqillik atalmish buyuk ne'matni she'riy mashqlarida madh etishyapti va ijod namunalari bizga yo'llashyapti.

Quyida tanlovga yo'llangan ijodiy ishlardan namunalar o'qiyisiz.

Feruza ABDUSAMAD qizi

QUYOSH

Yurtimiz uzra har tong,
Kulib chiqadi quyosh.
Ezgu niyatlar bilan,
Qarshilar kekxa-yu yosh.

Uning mayin nurlari,
Huzur bag'ishlar bizga.
Mehr-la qo'l uzatar,
Go'yo har o'g'il-qizga.

Marjona DAVLATALIYEVA,
Namangan viloyati, Uychi
tumanidagi 37-umumta'lim
maktabining 4-«A» sinf
o'quvchisi

YASHNA,
O'ZBEKISTONIM!

O'zbekiston diyori,
Tinch yashaydi aholi.
Yurtimizni yashnatar,
Ezguliklar shamoli.

Tinchlik bizning Vatanga,
Juda-juda yarashgay.
Jahon ahli bizlarga,
Havas bilan qarashgay.

Yashna, O'zbekistonim,
Gulla, O'zbekistonim!
Jahon ichra bayrog'i,
Hilpiragan makonim!

Nurbek OCHILDIYEV,
Surxondaryo viloyati,
Oltinsoy tumanidagi
62-umumta'lim maktabining
6-sinf o'quvchisi

KO'ZINGA TO'TIYO
HAR BIR GIYOHING

Ta'rif-u tavsifing tushmas tilimdan,
Tikani ham gullagan, go'zal guliston.
Bag'ringda yashab ham senga to'yamayman,
Yagona Vatanim, hur O'zbekiston!

Bobolardan meros zar zaminingga,
Cho'p suqsa bir ajib bog'lar bo'ladi.
O'g'il-qizing ulg'aysa barkamol bo'lib,
Sening ko'ksing misli tog'lar bo'ladi.

Mehr-oqibatli xalqing bor sening,
Madhing bo'ldi shundan dunyoga doston.
Ko'zimga to'tiyo har bir giyohing,
Ardoqli Vatanim, hur O'zbekiston!

Munawwar XOLOVA,
Termiz tumanidagi 18-umumta'lim
maktabining 9-sinf o'quvchisi

BU BIZNING
AJIB DIYOR

Yurtda ko'klam havosi,
Yangrar qushlar navosi,
Ko'ngillarga xush yoqar,
Mayin esgan sabosi.

Tog'larin uchida qor,
Etagida gul bahor,
Aytin do'stlar, bundayin
Go'zal diyor qayda bor?!

Jilg'a jildirab oqar,
Navosi dilga yoqar,
Bog'larda o'ynab qizlar,
Sochlariga gul taqar.

Bunda barcha baxtiyor,
Baxt-u iqbol bizga yor,
Bu qanday maskan, dersi,
Bu - bizning ajib diyori!

Muhsina MIRZAYEVA,
Toshkent shahridagi
84-umumta'lim maktabining
6-sinf o'quvchisi

MODDIY VA MA'NAVIY MEROS

Quyosh sistemasida uning atrofida aylanib yuruvchi sayyoralar ichida Yer kurrasi Quyoshdan uzoqligi jihatidan Merkuriy, Veneradan keyin uchinchi, hajmi va massasi jihatidan Yupiter, Saturn, Uran, Neptundan keyin beshinchi o'rinni egallaydi. Massasi $5976 \cdot 10^{21}$ kg.ni tashkil etadigan Yer yuzasining 70,8 foizi suv, 29,2 foizi esa quruqlikdan iborat.



Yerning shakli, tuzilishi va Koinotda tutgan o'rni haqida olimlar qadim zamonlardan izlanishlar olib borishgan. Ulug' ajdodlarimiz al-Xorazmiy va Ahmad al-Farg'oniy IX asrda Yer meridiani yoyini o'lchash asosida uning diametrini aniqlashga erishdilar. Yer radiusi uzunligini oddiy usulda hisoblab topgan olim Abu Rayhon Beruniy hisoblanadi.

Yer umummilliy boylik, ona zaminimizni doimo sarishta saqlash yoshlarimizning asosiy burchidir. Ba'zan ko'cha-ko'ya, xiyobon va bekatlarda maxsus chiqindi qutisi bor bo'lishiga qaramay, ayrim

o'quvchilarning muzqaymoq qog'ozi, pista po'choqlarini duch kelgan yerga tashlab yuborishlarining guvohi bo'lamiz. Bu bilan ular ko'cha qaroshlarining mehnatini qadrlashni unutib qo'yishadi.

Erta tongdan suv sepib, chinnidek supurilgan ko'chalarni o'tgan yo'lovchilarning bahri dili ochilib, ota-onangga rahmat, deya alqaydilar. Istandikki, farzandlarimiz nafaqat o'zlarini istiqomat qilayotgan joy, balki dasturiy yo'q, yolg'iz yashaydigan keksalar uyi atrofini tozalab, ularning duolarini olishsa.

Axir «Yerning yuzini ochsang, Oллоh husningni ochadi», degan naql bekorga aytilmagan-ku. Zero, tozalik, orastalik bor joyda farovonlik, to'kinlik va baraka bor.

Dilorom HOTAMOVA

«Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralari umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir».

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasi

Yaqinda poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 16-bolalar musiqa va san'at maktabi «O'zbek xalq cholg'ulari» bo'limining «Keksalarni e'zozlash yili-ga bag'ishlangan konserti bo'lib o'tdi.

Beg'ubor qalb ohanglari

Dasturda respublika ko'rik-tanlovlari faxrii o'rinlarni egallab kelayotgan yosh sozandalar asarlarini ijro etdilar.

1-sinf o'quvchilaridan Husan Hamroyev, E'zoza Karimova jo'rnnavozligida «Jon, O'zbekiston», Murodixon Hasanov «Shohi so'zana», Robiya Ergasheva ijrosidagi o'zbek xalq kuylaridan «Yallama yorim»ning ijrosi davradagilarga shodlik ulashdi. Shu bilan birga, Shahzoda Eshonxo'jayeva, E'zoza Karimova va Shahzod Mahmudovning tojikcha «Chakra-chaki», qoraqalpoq xalq kuylaridan «Qiz muloyim» Dilafr'o'z va Laylo Shumarovalar sozlari ohangida zalni to'ldirdi.

Xullas, konsertda «Tom boshida tog'ora»-yu «Tulpor», «Quvnoq g'ozlar»-u «Burre» o'quvchilar tomonidan maromiga yetkazib ijro etildi. Ahamiyatlisi, tadbirda, asosan, boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirok etishdi. O'zbek cholg'ulari bo'limi mudiri Ismat Isroilov rahbarligida tashkillashtirilgan mazkur tadbir beg'ubor qalb egalari uchun sehrlil ohanglari namoyishiga boy bo'ldi.

Nurbek NURALI o'g'li



4

Bolajonlar, har yili yurtimizga uzoq mamlakatlardan qancha sayyohlar kelishini bilasizmi? Xorazmdagi Ichangal'a, Samarqanddagi Registon ansambli, Go'ri Amir maqbarasi, Buxorodagi Minorai Kalon, eh-he, sanayversak, tarixiy obidalarining sanog'iga yeta olmasligimiz tayin.

qurdirishgan. Ulardan yana biri Qizil qal'a deb nomlangan.

Qizil qal'a – Boburiyoda Shoh Jahon tomonidan 1638–1648-yillar davomida Jamna daryosi bo'yida bunyod etilgan. Saroy devorlarining uzunligi ikki yarim chaqirim masofaga, balandligi daryo tomonidan 16 metr, shahar tomondan 33 metrgacha yetadi. Qal'aga g'arbdan Lohur darvozasi va sharqdan Dehli darvozasi orqali kiriladi. Qal' ichida hind va islom arxitekturasida asosida qurilgan qator saroylar, ko'shklar, masjid, shiyponlar va bog'lar majmui mujassam.



Dunyo bo'ylab SAYOHAT

Boburiyodalarning yurtparvarligi, bunyodkorligi bilan butun dunyoga mashhur bo'lishgan. Ularning barpo etgan inshootlari dunyo ahlining hayrati va e'tirofiga sazovor bo'lganiga bir necha asrlar to'lyapti. Tarixdan ma'lumki, Shoh Jahon malika Mumtozbeimga atab barpo ettirgan Toj Mahal maqbarasi hanuzgacha tarovati va go'zalligini yo'qotmagan. Ammo boburiyodalarning Hindistonda yana ko'plab tarixiy obidalarni



Buxoro shahridagi Minorai Kalon (Katta minora) yurtimizning diqqatga sazovor joylaridan biriga aylanib ulgurgan. Ushbu minorani Arslonxon muhandis va me'mor Baqo loyihasi asosida qurdirgan. Uning balandligi 50 metri tashkil qilib, tanasi g'olasimon, gumbazli inshootdir. Qafasidagi 16 ravoqli darchalar orqali chor-atrofini kuzatish mumkin. 1997-yilda Buxoroning 2500 yilligi arafasida Minorai Kalonda ta'mirlash ishlari olib borilgan va u yana jozibali, naqshinkor obida sifatida noyob hamda ko'hna yodgorliklar qatoridan o'rin olgan.

Komila TURG'UNOVA, Toshkent bank kollejining tarix fani o'qituvchisi, Ozoda TURSUNBOYEVA

UCHRASHUVLAR DAVOMI ETMOQDA

Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 198-umumta'lim maktabida bir an'ana bor. Nargiza Xolmuhammedova rahbarlik qilayotgan ushbu ta'lim maskanida deyarli har kuni tadbirlar, uchrashuvlar, ko'rik-tanlovlar, qiziqarli davra suhbatlari o'tkazib turiladi.

Bu kabi uchrashuvlar esa o'quvchilarning dunyoqarashini keng, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga sodiq bo'lib voyaga yetishlarida muhim vositalardan sanaladi. Tadbirlar, o'z navbatida, ular ongida an'ana, urf-odatlarimiz, betakror tariximiz qudratini his qilib, unga munosib bo'lish tuyg'ularini shakllantiradi.



«Imkon shou» ko'rsatuvining boshlovchisi Ahrorjon Qo'shmatovning bergan savollari hamda sevimli xonandalarimiz Oybek va Nigora bilan bo'lgan davra suhbat nafaqat o'quvchilarni, balki ustozlarni ham qiziqitirib qo'yd. Ustozlardan Mahbuba Isayeva, Xayriniso Sultonova, Nargiza Solihova, Dildora Hayitova, Dilfuza To'xtaxo'jayevalar bunday tadbirlarning sermazzmun va rang-barang bo'lishida hissasi katta.

Muzaffar AHMEDOV

Zomin tumanidagi 6-umumta'lim maktabida Akmal Qazhiboyev va Shavkat Boybotayev rahbarligida o'quvchilar chet tili darsi hamda to'g'azak mashg'ulotlarida olgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlab borishadi.

INGLIZCHA BELLASHUV



Yaqinda muassasada ingliz tilida «Imkon shou» bellashuvi o'tkazildi. Ushbu bellashuvda Madina Sattorova, Tursunoy Toshpo'latova, Shahodat Omonova, Sarvinov Shavkatova, Madina O'rolova, Nozima G'ofurova, Dilafro'z Rahmatova, Gulmira Norqulova, Feruza Toshboyeva, Gulhayo Abdusalomova kabi ingliz tili fanini a'lo baholarga o'zlashtiruvchi o'quvchi qizlar saralab olindi va ikki jamoaga bo'lindi.

«SPRING» hamda «NAVRO'Z» jamoalari uchta shart bo'yicha bellashishdi. «Tezkor savol-javob» shartida ishtirokchilar o'zbek tilida aytilgan so'zlarni ingliz tiliga tarjima qilishdi. «Pantamimo» shartida esa qizlarimiz turli buyum, narsalarni imo-ishoralar va xatti-harakatlari bilan ifodalashdi. Yakunlovchi «Test savollari» shartida o'quvchilar ingliz tilida berilgan mantiqiy savollarga javob berishdi.

Qiziqarli o'yinlarga boy ushbu tadbir o'quvchi-yoshlar bilim va ko'nikmalarini boyitish bilan birga, fikr va mulohazalarni bir-biri bilan o'rtoqlashish vositasi bo'lib xizmat qildi.

Maftuna BOYXONOVA

AJIB ANJUMAN BO'LDI

Yaqinda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qoshidagi aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabida ikki kunlik ilmiy anjuman bo'lib o'tdi.

Yoshlarni uzluksiz ta'lim tizimi jarayonida ingliz tilini chuqurroq o'rganish maqsadida tashkillashtirilgan mazkur anjumanda poytaxt maktablari va o'quv markazlari mutaxassislari ishtirok etishdi. Direktor o'rinbosari Rustam Xudoyberganov anjumanni olib bordi va birinchi kuniyoq o'qituvchilar ma'ruzalar bilan chiqish qildilar. Bahs va munozaraga boy tarzda kechgan seminarning ikkinchi kuni o'quvchilardan Doniyor Rustamov «Ratsional sonlarni soddalashtirish», Rahimjon Usmonov «Misr san'ati va arxitekturasini» borasida ingliz tilidagi ma'ruzalar yig'ilganlar olqishiga sazovor bo'ldi.



Ilmiy anjumanda faol qatnashgan o'qituvchi va o'quvchilar faxriy yoriqlar bilan taqdirlandilar.

Oydin JABBOROVA,
TDIU qoshidagi aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi o'qituvchisi

PROVERBS

(Maqollar)

It is never late to learn.

First think, then speak.

A friend in need is a friend indeed.

Honesty is the best policy.

Risolat ISMOILOVA

TEST

A man who is speaking is called a speaker, who is reading he (she) is called a ...

- A) listener B) thinker C) speaker D) reader E) writer

PREPOSITIONS OF TIME

(Vaqtning ko'rsatuvchi predloglar)

At, on, in

At a time

On a day

In a period

e.g. at 8 o'clock, at 3.30, at midnight

e.g. on Monday, on July 14, on the second day

e.g. in the morning, in April, in 1995

Complete the text with at, on or in



There one bus from Tashkent which gets here ... ten o'clock ... the morning and then another which gets in ... four o'clock ... the afternoon. That's ... weekdays, but ... the weekend the timetable is a bit different. ... Saturday there are still two buses but the second one arrives ... five thirty: ... Sunday there is just the one bus ... two o'clock. And ... the winter, the service doesn't run at all ... Sundays.

Lesson 32

DIALOGUE

Time

Ma'mura: - What time is it?

Tohir: - It's a quarter to five.

M: - Aren't we supposed to be at Jim's house by five o'clock?

T: - Five or five-thirty. He said it didn't make any difference.

M: - Then may be we could pick your suit up at the cleaners.

T: - Sure, we have plenty of five.



Ibrohim FAYZIRAHMONOV

CHOOSE THE WORDS CORRECTLY

(So'zlarni to'g'ri tanlang)

Underline two of the words on the right which are associated with or parts of the word on the left. Number 1st has been done for you.



- TREE brim, trunk, car, climb, cabbage
- HOUSE laugh, attic, forest, tongue, brick
- BICYCLE speak, saddle, town, pump, green
- FOOTBALL mole, corner, umpire, hornet, penalty
- CAR run, basket, clutch, boot, head
- FLOWER wren, petal, clean, buttercup, suggest
- SCHOOL brown, examination, dinner, offer, lesson
- SLEEP calm, nightmare, sheet, tongue, cushion
- SHOE snore, lace, heel, sit, height
- BOOK leaf, side, title, sheet, paperback



Dinora SHAKIROVA tayyorladi

«Jilg'alar jilosi»



Zarina NURMATOVA,
Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 68-umumta'lim maktabi o'quvchisi

«Bahor gashti»



Sarvaroy NE'MATULLAYEVA,
Suxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 3-umumta'lim maktabining 3-«G» sinf o'quvchisi

SO'ZI KO'NGIL O'FTOBI

Tuyg'ularning tug'yonlari,
Uning dastlab kitobi.
Hayot varaqlarini,
Ko'rdi olam oftobi.

Sirli olam qoshida,
Egmad hech boshini.
Kuyib, yonib tursa ham,
Ko'rsatmadi yoshini.

Shunday mag'rur, sabotli,
Unda bardoshli g'urur.
Shuning uchun olamga,
Solmoqda dovrug', surur.

Yulduz USMONOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Shahrisabz tumanidagi
14-umumta'lim maktabining
9-«B» sinf o'quvchisi

SOG'INAMAN SIZNI, OTAJONI

Orzularim kezar osmonda,
Dil talpinib turar har onda.
Izim qolsin, deya jahonda,
Sog'inaman sizni, otajon.

Izlaringiz ko'zga to'tiyo,
Suratingiz taratar ziyo.
Mehringizga bo'lib mahliyo,
Sog'inaman sizni, otajon...

Umida SULAYMONOVA,
Navoiy viloyati, Konimex tumanidagi
2-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

BOSHIKIDA QUYOSH KULSIN

Qadamlaring qutlug' bo'lsin, bahorjonim,
Bog'larimiz gulga to'lsin, bahorjonim.
Tarab kel, yalpizlarning xush iforin,
Boshimizda quyosh kulsin, bahorjonim.

Yal-yal yonib qizg'aldoqlar ko'rsatsin bo'y,
Chaq-chaqlashib qushlar qilsin bog'larda to'y.
Dov-daraxtlar tezroq kiyisin guldin libos,
Chuchmomalar bo'y taratsin bahorga xos.

Nafosat OLMOSOVA,
Samarqand viloyati, Paxtachi tumanidagi
25-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi



YOMG'IR



Qishda yog'ib necha bor,
Aylanding har gal qorga.
Kunlar o'tib oxiri,
Yetib keldik bahorga.

Qor, muz qishga yarashar,
Yomg'ir esa bahorga.
Rahmat demaydi hech kim,
Agar aylansang qorga.

Shahnoza BAXTIYOROVA,
Toshkent shahar,
Yunusobod tumanidagi
265-umumta'lim maktabining
7-sinf o'quvchisi

ARAZGHI POYABZALLAR
(G'aroyib voqea)



Eh, qani endi men ham odobli bolaning qo'liga tushib qolsam. Maktabga borib, juda ko'p do'stlar orttirgan bo'lar edim. Do'konda qimirlamay turganimdan zerikib ketdim.

Voy, o'zimni tanishtirmabman-ku. Men poyabzal do'konining eng pastki qismidan o'rin olgan kichkina tuflichaman. Ayrim paytlar shu do'kon sotuvchisidan xafa bo'lib ketaman-da. Nega meni rastaning balandroq joyiga qo'yishmaydi? Balki shunda xaridorlar ko'ziga tushib, xarid qilisharmidi... Maktab boshlansa hamki, meni hech kim sotib olmadi. Xafa bo'lib xayol surib turgan kunlarimning birida «Menga shu tufli yoqdi, shuni olib bering», degan ovozdin quvonib ketdim.

Shunday qilib, bo'yi pastroq, sochlari jingalak Shahzod ismli bola meni tanladi. Juda xursand edim. U meni qo'yarga joy topmasdi. Ishonasizmi, hattoki tunda oyog'idan yechmay, kiyib yotdi. To'g'risi, meni

bunchalar yaxshi ko'rib, avaylaydigan bola kiyganidan behad shod edim. Ertalab maktab tomon yo'l olar ekanmiz, Shahzod eski oyoq kiyimini uloqtirib yubordi. Men bu holni ko'rib, xafa bo'ldim. U sumkasini ko'targan holda maktab tomon yugurdi.

Birinci qo'ng'iroq chalindi. Shahzodning partadoshi Ziyodaning tuflichasi bilan tanishib oldim. U oppoq va bahoni eslatuvchi pushti rangdagi gulchasi bor. Birdan tanaffus qo'ng'irog'i sinf sukunatini buzib yubordi. Hammasi ana shundan keyin boshlandi. Maktab hovlisidagi o'yinqaroq bolalar qatoriga Shahzod ham qo'shildi. Hech nimaga tushunishga ulgurmasimdan bolalar bo'sh yelim suv idishlarini tepisha boshlashdi. Dam u yoqqa, dam bu yoqqa tepishar, changdan ko'zlarim atrofini ko'rmasdi. Xullas, zum o'tmay ancha kiyilgan tufliga o'xshab qoldim. Shahzod maktabdan qaytishda meni yerga sudrab, kezi kelganda, toshlarni tepib, jonimni og'ritardi. Maktabda esa Ziyodaning tuflisidan juda uyalardim. Bir kuni uyda behol bo'lib o'tirsam,

Shahzodning boshqa tufllilari qochib ketishga qaror qilishdi:

– Kelinglar, ketaylik. Nega bu bolaning qiynoqlariga chidashimiz kerak?! Bizni avaylamasa, hatto bog'ichimizni bog'lamasa...

– Ertaga maktabda katta bayram. Biz ketib qolsak, u qanday qilib qatnashadi, oyoqyalang bormaydi-ku, axir?! – dedim men.

– Bu unga yaxshi jazo bo'ladi, – deyishdi-da, xonadoshlarim asta-sekin uydan chiqib ketishdi. Unga rahmim kelganidan men qoldim. Ertasi kuni u bayramda kiyadigan tuflisi ham ketib qolganidan tang ahvolda qoldi. Nima qilishini bilmay meni qo'liga oldi. Kech qolayotganini sezib, yaxshilab tozalab, moyladi. Shunchalik chiroyli bo'lib ketdim-ki, asti qo'yaverasiz. Hattoki Ziyodaning tuflichasi ham meni tanimay qoldi. Bayram tugagach, Shahzod meni yana avaylab artib qo'ydi-da:

– Rahmat senga, tuflicham, shunday paytda tashlab ketmaganing uchun. Men o'z xatoimni tushunib yetdim. Endi seni, kiyimlarimni ham, o'quv qurollarimni ham asrab-avaylayman, – deb va'da berdi.

Men quvonchdan yayrab ketdim. Endi meni yana bitta ajoyib do'stim bor.

Sarvar FARMONOV



Surxondaryo viloyati haqida gap ketganda, beixtiyor kuragi yer ko'rmagan polvonlar ko'z oldingizga keladi. Voha bugungi kunda sportning boshqa turlarida viloyat nomini oqlayotgan jismoniy barkamol yoshlari bilan respublikamizda o'z nufuziga ega.

Vohalik jajji sportchi

Sariosiyolik Sultana Narzullayeva tumandagi 11-umumta'lim maktabining 5-sinfida ta'lim oladi. Bolaligidan sportga mehr qo'yan qizaloq ikki yildirki, badiiy gimnastika bilan shug'ullanib keladi. U o'tgan yili «Umid nihollari» sport musobaqasining viloyat bosqichida boshlang'ich sinflar kesimida faxrlari qo'lga kiritdi. Joriy yilda 5-7-sinflar o'rtasida «Umid nihollari» musobaqasi hamda ayollar sport festivalida badiiy gimnastika bo'yicha 1- va 2-o'rinlarni egalladi.

– Ustozim Bibirajab Imomova mashg'ulot jarayonida har birimiz bilan alohida shug'ullanadi. Badiiy gimnastikadagi nafislikni faqat harakatlarimizda emas, muomalada, xulqimizda ham namoyish etishimizni utqiradilar, – deydi yosh sportchi.

Sultana hozirda sportdan tashqari, chet tillarini mukammal o'rganish harakatida. Uy yumushlarida onasiga yaqindan yordamchi qiz taom tayyorlashni, ayniqsa, manti, chuchvara tugishni o'rganib oldi.

Qiz bolaning har ishda epli bo'lgani baribir yaxshi-da!

**Ulug'bek SAIDOV,
Gulandom UMAROVA**

Yurtimizda bolalar sporti, ayniqsa, qizlar sportini rivojlantirishga bo'lgan e'tibor davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Sport mashg'ulotlarida maktabgacha yoxud boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilarning borligi quvonarli holdir.

Sinfdozlariga o'rnak

Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 206-umumta'lim maktabining 2-«A» sinfida tahsil olayotgan Malika Mahmudova badiiy gimnastika mashg'ulotlariga muntazam qatnashib kelmoqda. Jajji sportchi o'tgan yillar mobaynida «Jajji malika», «Ninachi» musobaqalarida mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritdi. Joriy yilda uning medallar shodasini yana ikkita g'alaba nishoni bezadi. U «Umid nihollari – 2015» sport musobaqalari ikkinchi bosqichida 1-o'rinni egallab, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda «Yoshlik» jismoniy tarbiya va sport jamiyati Toshkent shahar Kengashi maqto'v yorlig'i va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Shuningdek, yaqinda bo'lib o'tgan navbatdagi «Ninachi» musobaqasida ham birinchi o'ringa munosib topildi.

– Maktabimizda o'tkaziladigan bayram tantanalari Malikaning nafis chiqishlari bilan yanada boyiydi. Ta'lim va sportda o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan o'quvchimiz hamisha sinfdozlariga o'rnak, – deydi ustoz Fotima Kenjayeva.

Malika hozirda navbatdagi sport musobaqasiga tayyorgarlik ko'rmoqda.

NURBEK

ORZUSI – OLIMPIADA CHEMPIONI BO'LIH

Kelajakda Olimpiada chempioni bo'lish orzusi bilan yashayotgan Subhiya Musayevada ham shunday sifatlar mavjud. Galaosiyolik qizning sportga bo'lgan qiziqishi uni ancha avval Buxoro tuman maxsus sport maktab-internatiga olib keldi. Maskanda 6-sinfdan o'qishni davom ettirgan sportchi o'sha yilning o'zida ketma-ket g'alabalarni qo'lga kiritib boshladi. Toshkent, Farg'ona, Navoiy shaharlarida o'tkazilgan respublika birinchiликlarida sambo, dzyudo bo'yicha o'z vazn toifasida oliy o'rinlarni egallab keldi.

Sport maktabini bitirgan Subhiya o'tgan oyda Buxoro shahrida bo'lib o'tgan kurash bo'yicha O'zbekiston chempionatida 87 kg. vazn toifasida 2-o'rinni egallab, sport ustasi sifatida tan olindi. Tumandagi iqtisodiyot kollejida tahsil olayotgan kurashchi hozirda Turkmanistonda bo'lib o'tadigan kurash bo'yicha jahon chempionatida ishtirok etishga tayyorgarlik ko'rmoqda.

Buyuk ajdodlar vorislari yurt bayrog'ini baland ko'tarib, butun dunyo bilan teng bellasha olishlarini isbotlab kelishmoqda. Bularning barchasi mamlakatimizda hech kimdan kam bo'lmagan barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilayotgan yuksak e'tiborning yana bir yorqin ifodasidir.

**Muhammadsodiq
ALIMOV**

MUVAFFAQIYATLAR SIRI

Mehribonlik uyida tartib-intizom va sport ishlari yaxshi yo'lga qo'yilganligida.

muvaqqiyatlari sababini so'raganimizda, Mehribonlik uyidagi tajribali murabbiy Yorqinjon Ismoilovning mashg'ulotlarda talabchanligida, deydi. Maskandagi tartib-intizom uning bugungi yutuqlariga poydevor bo'lgani, Mehribonlik uyida sport ishlari yaxshi yo'lga qo'yilganligi tarbiyalanuvchilarning kayfiyatidan ham sezilib turadi.

– Tarbiyalanuvchilarning sport do'stligi va salomatlik garovi ekanini anglab yetgan, – deydi Yorqinjon aka. – Har bir yutuq sportchilarimizni yanada yaxshi natijalarga erishishga undamoqda.

Artur Grebnyovning orzusi nufuzli musobaqalarda g'olib bo'lib, mamlakat bayrog'ini yuqori ko'tarish.

Bu ezgu niyatlar inson ko'ngliga g'urur, iftixor bag'ishlab, Artur Grebnyovni yangi marralar sari ruhlantiradi.

Zarnigor MUSAYEVA



ENG YAKSHI IJTIMOY LOYIHA



O'quvchilar o'zlari yasagan o'yinchoqlar yordamida qo'g'irchoq teatrini namoyish etishdi.

Yaqinda Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi 5-umumta'lim maktabi o'quvchilari tuman Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi tomonidan tashkillashtirilgan «Eng yaxshi ijtimoiy loyiha» tanlovida faol ishtirok etishdi. Unda mazkur maktab o'quvchilari tumandagi 73 ta ta'lim muassasasi o'rtasida g'oliblikni qo'lga kiritishdi.

«Bolajonlar qo'g'irchog'i», deb nomlangan loyihada o'quvchilar o'zlari qo'lda yasagan o'yinchoqlar vositasida qo'g'irchoq teatrini namoyish etishdi.

Mo'jaz teatrning faol a'zolaridan Dilyorbek Ermatov, Dilxiroj Mirahmedova hamda Mohinur Zulqaynarovaning chiqishlari tanlovning qiziqarli o'tishini ta'minladi.

Tanlovda qatnashish istagini bildirgan o'quvchilar qisqa vaqt ichida katta tayyorgarlik ko'rishdi. Yaroqsiz buyum qoldiqlaridan mo'jaz qo'g'irchoqlar yasagan o'quvchilarning shijoatini ko'rgan tengdoshlari ulardan ibrat olishmoqda.

O'quvchilar bu bilan to'xtab qolmoqchi emas. Qo'l mehnati bilan turfa ertak qahramonlari obrazini yaratib, dastur asosida tuman maktablari bo'ylab qo'g'irchoq teatrini namoyish etishni rejalashtirishgan.

OLMOS, Sadoqat TANGATOVA, «Kamolot» YOIH bosh yetakchisi

AYDARKO'L SOHILLARIDA

Jizzax va Navoiy viloyatlari hududida yastanib yotgan Aydarko'l ko'plab suv havzalaridan iborat bo'lib, tabiati mo'tadil. Bu yerda erta tongdanoq qushlarning baland ovozdagi chug'ur-chug'uri eshilib turadi. Ayniqsa, saqoqushlar shovqini olis-largacha yetib boradi.



Ilgari ko'lda qorabuzov va chag'alaylar barmoq bilan sanarli edi. Endilikda ular soni ko'payib bormoqda. Bu qushlar gala-gala bo'lib, tovushsiz harakat qiladi. Suvning tebranishidan o'ljasi oson topadi.

Qalin chakalakzorlarda qirg'ovullar ham ko'zga tashlanib qoladi. Narining ko'zlari atrofi qizg'ish, boshi ko'k rangda bo'lib, bo'yin qismidagi oq hoshiyasi uni yanada yorqinlashtirgan. Tanasining yarmidan ko'pini dumi egallaydi. Tustovuqlarni esa ochiq tabiat og'ushida kuzatish nihoyatda zavqli. Aydarko'lda qishda ham suv muzlamagani uchun bu yerda minglab parrandalar makon topishgan. Saqoqush, qorabuzov, oqboosh va olaqanot o'rdaklar, oq peshonali va qiziltomoq g'ozlar, noyob oqqush hamda turnalar bir-birlari bilan go'yo o'zaro xabar almashib, ozuqa mo'lgan joylarni izlab topishadi.

Aydarko'lda baliqxo'r qushlarning yigirmaga yaqin turi mavjud. Ular chegara bilmaydi. Shimoldan uchib kelgan bu qushlar o'lkamizda to'xtab, dam olib, oziqlangach, qaytish tadorigini ko'rishadi. Uzoq safar oldidan gala hosil qilib, uchib ketishadi.

Qumli sohillarda yulg'un va qamishzorlar ham ko'zga tashlanib turadi. Shoxlari tarvaqaylab, tanasi yo'g'onlashib ketgan saksovullar qishda qushlarga boshpana, yozda soyabon vazifasini o'taydi. Qisqasi, yurtimizning cho'l hududidagi Aydarko'l suv havzasi quyoshning zarrin nurlarida ajib bir tusda jilolanadi. Tabiatning bu in'omi kishiga o'zgacha zavq bag'ishlaydi.

Abdulla SAIDOV

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING

Aqliy sport o'yinidagi ortga qaytmas askarni bilasizmi?



Qir-u ovuldan nom olgan ko'rkam qushning nomi...



Sportchining doimiy orzusi nima?



Qaysi qushda xat bor?



Husan ORIPOV tayyorladi

«B»DAN BOSHLANGAN TO'RTLIK

Bog'bon bobom bel bog'lar, Belda bog'liq belbog'lar. Behi, bodom bolidan, Bog'ni bog'larga bog'lar.



TEZ AYTISH

Boqi bobom Bog'da bog'bon. Soqi polvon Postda posbon.

Anvar MIRZAZODA, Toshkent viloyati, Zangiota tumani

MAZALI «STAKAN»CHALAR



Kerakli masalliq: 3 dona tuxum, un, 250 gramm margarin, yarim choyqoshiq iste'mol sodasi, shokoladli quyultirilgan sut, kokos qirindisi.

Tayyorlanishi: un margarin bilan uvalanib, tuxum chaqiladi, iste'mol sodasi solinib, yumshoq xamir qoriladi va ikki soatga muzlatgichga qo'yiladi. Gaz pechi qizdirilib, patnis yog'lanadi. Xamir qirg'ichdan o'tkazilib, qizargunga qadar pishirib olinadi va chuqurroq idishga solinadi. Issiqligida biroz uqalanib, ustiga quyultirilgan sut solinadi va aralashtiriladi. Chuqurroq stakanga urvoqlar solinadi. Agar urvoqlarning ko'chishi qiyinlashsa, stakan sovuq suvda ho'llab olinadi. Tayyor stakanchalar ustiga kokos qirindisi sepiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

8

20-aprel 2015

Bosh muharrir **Feruza ADILOVA**

TAHRIR HAY'ATI: Omonulla YUNUSOV, Abdug'ani XOLBEKOV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Vahobjon RAJAPOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruza JALILOVA, Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir **Nurbek QIDIRALIYEV**
Rassom **Feruzbek KAMOL o'g'li**

Manzilimiz: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100129. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz
Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shaki A-3, 2 bosma taboq. **ISSN 2010-6092**
Adadi – 48255
Buyurtma – S 2703

Muassislar: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.